

ARAB TILIDA TO'G'RI VA NOTO'G'RI FE'L TURLARI

Jo'raboyeva Shirin Ilhomovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

shirinjoyraboyeva985@gmail.com

Umurzakova Oygul Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tili sarf ilmidagi to'g'ri va noto'g'ri fe'llar turlari, ularning grammatik xususiyatlari va tasnifiga bag'ishlangan. Unda sarf ilmi haqida, undagi to'g'ri va noto'g'ri fe'llarning morfologik tuzilishi, shakllanish qoidalari hamda ulardan foydalanishning semantik va sintaktik ahamiyati tahlil etilgan. Arab tilining boshqa tillar bilan qiyosiy tahlili orqali ushbu fe'l kategoriyasining o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar va iboralar: arab tili, sarf ilmi, to'g'ri fe'llar, noto'g'ri fe'llar.

Аннотация. Эта статья посвящена типам правильных и неправильных глаголов в арабском языке, их грамматическим особенностям и классификации. В статье анализируется морфологическая структура правильных и неправильных глаголов, правила их образования, а также их семантическое и синтаксическое значение. Уникальные особенности данной категории глаголов раскрыты через сравнительный анализ арабского языка с другими языками.

Ключевые слова и фразы: арабский язык, арабская морфология, правильные глаголы, неправильные глаголы.

Annotation. This article is dedicated to the types of regular and irregular verbs in Arabic morphology, their grammatical features, and classification. It analyzes the morphological structure of regular and irregular verbs, the rules of their formation, and their semantic and syntactic significance. The unique features of this verb category are revealed through a comparative analysis of the Arabic language with other languages.

Keywords and phrases: Arabic language, Arabic morphology, regular verbs, irregular verbs.

Arab tili grammatikasi boy va murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning asosiy komponentlaridan biri fe'llardir. Fe'llar arab tili morfologiyasida harakat, holat va jarayonni ifodalovchi asosiy birlik bo'lib, to'g'ri va noto'g'ri fe'l turlari ularning tuzilishiga qarab farqlanadi. Ushbu maqola arab tilidagi sarf ilmi va undagi fe'l turlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularning grammatik xususiyatlari va til tizimidagi o'rnini aniqlashni maqsad qilgan.

Arab tilida so'zlar o'z semantik belgilari va grammatik xossalariga ko'ra turkumlarga bo'linadi. So'zning semantik belgisi, uning narsa, harakat, xoss kabi

ma'nolarining ifodalanishidir. Grammatik xossa deganda, so'zning morfologik va semantik xususiyatlari nazarda tutiladi. So'zni tarkib nuqtai nazaridan o'rganish morfologiya **"sarf"** (الصرف) ning vazifasidir. Ma'lumki, gaplarning o'zi so'zlardan tuziladi. So'zlarning gapdagi vazifasini sintaksis **"nahv"** (النحو) o'rganadi. Arab tilidagi barcha so'zlar uch qismga – turkumga bo'linib o'rganiladi. Bular

ism (الاسم), **fe'l** (الفعل) va **harf** (الحرف) lardir.

Sarf (الصرف) ilmi arab tili haqidagi bilimlar tarkibiga kiruvchi asosiy fanlardan hisoblanib, zamonaviy va klassik arab tilini o'rganishda g'oyat muhim o'rin tutadi. Ba'zi ulamolar ushbu fanni **"tasrif ilmi"** (التصرف) deyishgan. Lekin aksar olimlar fikricha, shu ilmga **"sarf"** (الصرف) atamasi ishlatish to'g'riroqdir. Zero, **"tasrif"** so'zi **"sarf"** dan olingan. Bundan tashqari, **"sarf"** (الصرف) vazn jihatdan ham **"nahv"** (النحو) so'ziga mos keladi. Shu bois manbalarda **"nahvu sarf"** iborasi ko'p uchraydi.

Lug'atda, **"sarf"** (الصرف) va **"tasrif"** (التصرف) so'zlari **"o'zgartirmoq, aylantirmoq"** ma'nolarini anglatadi. Istilohda esa, **"sarf"** (الصرف) ilmi kalimalarning tuzilishi, turli ma'nolarni ifoda qilish uchun masdarlardan xilma-xil kalimalar yasash, fe'llarni turli siyg'alarda tushlashini o'rgatadigan fandir. **"Sarf"** (الصرف) ilmi bir o'zakdan turli so'zlar yasashni o'rgatadi. Bu fanning muhimligi ham shunda.

Sarf (الصرف) ilmi kalimalarning yolg'iz shakldagi holatlarini va fe'llarning tuslanishini o'rganadigan ilm hisoblanadi. **"Sarf"** (الصرف) ilmi, arab so'zlarining tuzilishi, shakli, so'zlarning harflari aslmi yo orttirilganmi yo tushurib qolingani yoki sog'lommi yo illatlimi yo almashtirilganmi va boshqa shu kabilarni tushuntirib berish haqida muhokama qiladigan ilmdir.

Arab kalimalarining mezoni **ل ، ع ، ف** dir. Ya'ni kalimadagi asl harflardan zoida harflarini ajratish uchun qo'yiladigan o'lchovdir. Kalimada **ل ، ع ، ف** barobarida kelgan harflar asliy harflar deyiladi.

Misol: **فَعَلَ – ضَرَبَ** vaznida.

Arab tilida illatli harflar uchta bo'lib, ular **و ، ا ، ي** harflaridir.

Fe'l harflarning illatli harfi bo'lishi yoki bo'lmasligini e'tiborga olgan holda ikki qismga bo'linadi: sahih "صحيح" va mo'tal "مُعْتَل".

1. **Sahih "صحيح" fe'l** – asl harflarida illatli harfi bo'lmagan fe'l. Misol:

كَتَبَ – أَكَلَ – مَدَّ

U uch qismga bo'linadi: **solim "سالم"**, **mahmuz "مهموز"** va **muzo'af "مُضَاعَف"**.

➤ **Solim "سالم" (to'g'ri fe'l)** - fe'l negizining asl harflarida hech qanday illatli harf, hamza va ikki bir jinsli harf bo'lmagan fe'l. Misol:

كَتَبَ – ذَهَبَ – عَلِمَ

➤ **Mahmuz "مهموز" (hamzali fe'l)** - fe'lning asl harflaridan birida hamza bo'lgan fe'l. Hamzaning qaysi o'zak undosh **"ل ، ع ، ف"** o'rnida kelishiga qarab, bu fe'llar uch turga bo'linadi:

- birinchi o'zak undosh **"ف"** hamzadan iborat fe'l. Misol: **أَخَذَ**

- ikkinchi o'zak undosh "ع" hamzadan iborat fe'l. Misol: سَأَلَ
 - uchinchi o'zak undosh "ل" hamzadan iborat fe'l. Misol: قَرَأَ
- **Muzo'af "مُضَاعَفٌ" (ikkilangan fe'l)** - fe'ning asl harflaridan birining ikkinchi "ع" bilan uchunchi "ل" bir jinsda bo'lgan fe'l. Misol: مَدَّ - مَرَّرَ
2. **Mo'tal "مُعْتَلٌ" fe'l (zoif)** – asl harflaridan biri illatli harf bo'lgan fe'l. Misol: وَعَدَ - قَالَ - رَمَى

U to'rt qismga bo'linadi: **misal "مثال"**, **ajvaf "أجوف"**, **noqis "ناقص"** va **lafif "لفيف"**.

- **Misal "مثال"** (solimsifat fe'l) – fe'ning birinchi o'zak undosh "ف" si, illatli harf bo'lgan fe'l. Misol: وَعَدَ - وَرَثَ
- **Ajvaf "أجوف"** - fe'ning ikkinchi o'zak undosh "ع" i, illatli harf bo'lgan fe'l. Misol: قَالَ - بَاعَ
- **Noqis "ناقص"** - fe'ning uchinchi o'zak undosh "ل" i, illatli harf bo'lgan fe'l. Misol: رَضِيَ - رَمَى
- **Lafif "لفيف"** - fe'l o'zagidagi asl ikki harf, illatli harflardan bo'lgan fe'l. Misol: طَوَى - وَفَى

Bu fe'l ikkiga bo'linadi:

- **lafif maqrun "لفيف مقرون"** – fe'ldagi ikki illatli harfning birga qo'shilgan holda bo'lishi. Misol: طَوَى - نَوَى
- **lafif mafruq "لفيف مفروق"** - fe'ldagi ikki illatli harfning ajralgan holda kelishi. Misol: وَفَى - وَقَى

Maqolada arab tilidagi to'g'ri va noto'g'ri fe'l turlari o'rganildi va ular orasidagi asosiy farqlar yoritildi. To'g'ri fe'llar barqaror shaklga ega bo'lsa, noto'g'ri fe'llar morfologik o'zgarishlarga moyil bo'ladi. Ushbu grammatik birliklarning o'rganilishi arab tilining morfologik tizimini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi va til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri fe'llar bilan ishlashda qo'llaniladigan qoidalar arab tilining murakkabligini va uning boy grammatik tizimini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdujabbarov A. Arab tili. Darslik. – Toshkent, 2007.
2. Ahrorov I. Taysirus sarf. – Toshkent, 2015.
3. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
4. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024.
5. www.arabic.uz